



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends In Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## THE IMPORTANCE OF BOOKS IN THE UPBRINGING OF THE YOUNGER GENERATION

Masharipova Sarvinoz<sup>1</sup>

Bahodirxon Nomonov<sup>2</sup>

*Samarkand State Institute of Foreign Languages, Namangan Institute of Engineering Technology*

---

### KEYWORDS

Reading youth, religious-spiritual education, reading spirit, large-scale reforms, environment in schools, Sarah libraries

---

---

### ABSTRACT

The younger generation, which is currently growing, is spiritually mature, spiritually healthy and invigorating. As long as we live in a time of intense development, of course, the role of books in the life path of the younger generation is greater than that of benihoya. In particular, the books of art, religion, Mary are acting programmatically when they find their way. Books are not an exaggeration to say that one of the main weapons in ensuring the spiritual elevation of every person. This article discusses the growing sprouts with enthusiasm in their hearts today, their attention to books and their achievement of religious-spiritual maturity.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7853430

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand, Uzbekistan

<sup>2</sup> IELTS Instructor, Doctorate, Namangan Institute of Engineering Technology, Namangan, Uzbekistan

# KITOBLARNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

**KALIT SO'ZLAR/****КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

kitobxon yoshlar, diniy-ma'naviy tarbiya, kitobxonlik ruhi, keng ko'lamlı islohotlar, maktablardagi muhit, sara kutubxonalar

---

**ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ**

---

Hozirgi kunda o'sib borayotgan yosh avlod ma'nан yetuk, ruhan jismonan sog'lom va tetikdir. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yashayotgan ekanmiz, albatta yosh avlodning hayot yo'lida kitoblarning o'rni benihoya kattadir. Jumladan, badiiy, diniy, marifiy kitoblar o'z yo'llarini topishlarida dasturil amal vazifasini o'tamoqda. Kitoblar har bir insonning ma'naviy yuksakligini ta'minlashdagi asosiy qurollardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqola bugungi kunda qalbida shijoat bilan o'sib borayotgan nihollarning, kitoblarga bo'lgan e'tibori va diniy-ma'naviy yetuklikka erishishi to`g'risida muhokama qiladi.

Ilmga chanqoq yoshlarning qiziqishlarini, dunyoqarashini yanada kengaytirish maqsadida Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 12-may kuni "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarni tashkil etish tog'risida"gi qaror imzolandi. Bu qaror kitobga qalbi oshno yosh kitobxon avlodning yana bir yutug'i bo'ldi. Bu imkoniyatlardan to'la qonli foydalana olgan yosh kitobxonlarning quvonchlari qalblariga sig`masdi. Ilm bor qalbda hamisha ezgulik hukmron bo'ladi. Yurtimiz kelajagi mana shunday ilmga chanqoq yoshlar qo'lida ekan, hech ikkilanmay buyuklik sari qadam tashlab borayotganimiz haqida mag'rur so'zlasak bo'ladi. Yoshlarning ta'lim tarbiyasida kitobning o'rni, mavqeyi benihoya kattadir. Buyuk shoir Alisher Navoiy xazratlari aytib o'tganlaridek, "Kitob - beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksaklikka erishishning eng asosiy manbai"dir. O'zlikni, samimiyatni, millat ko'zgusini kitobdan qidirgan yoshlar hamisha ezgulik tomon yurib boradilar. Kitoblar haqida so'z ketarkan insonning qalbida o'zgacha orziqish mavjlanadi. Ko`p zamonlardan beri kitob o'qib, bu ajoyibot olamidan ilm nurlarini terayotgan buyuklardan, biz yosh kitobxon avlod uchun go`zal nasixatlar bisyordir.

Jumladan, quyidagilar:

- 1.Mutola uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi.
- 2.Mutola qalbni yumshatadi.
- 3.Mutola insonni go'zallashtiradi.
- 4.Mutola xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.
- 5.Mutola ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Yuqorida sanab o'tganlarimiz har qanday ilmga oshufta qalbni tezda o'ziga chorlashi tabiiy hol.

Kitobxonlik- ma'naviyatni, tarbiyani, diniy kamolotni yuqori cho'qqiga olib chiqadigan yo'llardan hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, bola asosiy tarbiyani avvalo oilada, ota-onas bag'rida oladi. Bu albatta bolaning boshlang'ich tarbiyasi hisoblanadi. Kitob - hurriyatga eltuvchi nurdir. Ma'naviy – diniy kamolotning darchasidir. Qalbga ezgulik

urug`ini ekuvchi, ko`zlarga nur-u ziyo bo`luvchi, yo`ldan adashgan polaponni to`g`ri yo`lga undovchi jamiki ezguliklar yig`indisi kitobda mujassamlashgan. Buyuklardan gap ketar ekan, doimo Петер Гилленинг kitobga bergan bir ta'rifi yodimga tushadi. Kitoblar ovozsiz muallimdirilar. Xaqiqatdan ham sirlikni o`zida jamuljam qilgan, ilohiylikni o`zida berkitib turgan, qachonki qo`lingga meni olib ochsanggina borliqning ajoyibotlaridan habardor bo`lasan deya sukunatga cho`mgan. Kitoblar – tarbiyadir, muallimdir, o`zlikni tanitgan mo`jizadir.

Mo`minlarning dur-u gavhari, qalbga iymon chiziqlarini chizishga sababchi bo`lgan yo`riqnomadir. Sirliklarni o`zida jamlagan olam – olam nурdir.

Bolaning kitobga bo`lgan muhabbat qachon ortadi? Qachonki, kitobxonlik ruhiga burkangan muhitni his qilsa. Hozirgi kunga kelib kitobxonlik ruhiga burkangan maskanlar soni ortib bormoqda. Yurtboshimizning tashabbuslari va qo`llab quvatlashlari bilan mamlakatimizda kitoblarga bo`lgan mexr, e'tibor yanada kuchayib bormoqda. Yurtboshimiz Anqarada Xalq kutubxonasi ochilishida nutq so`zladi "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o`zining intelektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda", - dedi yurtboshimiz.

O`sib borayotgan yosh avlodning ham ma`nan, ham ruhan yetuk bilimga ega bo`lishida kitoblar dasturul amal vazifasini o`tab kelmoqda. Maktablarda o`quvchilarning kutobga bo`lgan muhabbatini oshirish maqsadida turli xil kitobxonlik kechalari tashkil etilmoqda. Bu qilinayotgan harakatlar albatta bir kun o`z natijasini ko`satisfiga ishonchimiz komildir.

Yurtimizdagи eng nufuzli kutubxonalardan biri "O`zbekiston milliy kutubxonasi" hisoblanadi. Ilm nuriga burkangan ziyo maskanlarining yanada ko`payishi kitobxonlarning kitobga bo`lgan ehtiyojlarini qondirilishiga sabab bo`ladi. Yurtimizning ko`plab viloyatlarida ham mana shunday ziyo maskanlari qad rostlamoqda.

Xulosa o`rnida shuni ayta olamanki, jamiyat kitoblar degan ajoyib qobiq bilan qoplangan ekan, ertamiz go`zal, yutuqlarimiz davomli bo`ladi deya hech ikkilanishlarsiz ayta olaman. Buyuk jamiyatning buyuk shaxlari shakllanib bormoqda. Katta dengizning bir chetidagi jilovlanib turgan chashma kabi biz yosh kitobxon avlod ham jilovlanib, katta – katta dengiz bo`lib buyuklikning sirini kitoblardagi ilohiylikdan topamiz. Kitoblar bor ekan qalbimizdagи ilm olishga bo`lgan istak, ishtiyoyqimiz kundan – kunga ortib boradi. Biz kitobxon yosh avlod buyuklikning sirini kitobdan qidirar ekanmiz, hech qachon boshimiz egilmagay, qaddimizni tik tutib, ziyo istab, qalbimizga ilm deb atalmish ilohiylikni joylab shaxdam yurib boramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/>.
2. <https://www.xabar.uz/uz/molode-knigolyub-uzbekistana-mogut-stat>
3. <https://xs.uz/uzkr/.post/kitob-haqida-buyuklar-nima-dejdi>
4. "Ижод олами" журнали, 2018 йил, 5-сон
5. <https://president.uz/uz/list/view/.3373/>